

URGUT VA SO`G`DNING NASRONIYLIK BILAN BO`G`LIQ YODGORLIKHLARI

Suyarov Abdulatif

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

ARTICLE INFO.

Kalit so`zlar: So`g`d, Urgut, xristianlik, nestorianlik, xalkedong sobori, so`fiyon qishlog`i, o`zbek-fransuz ekspeditsiyasi.

Anotatsiya

Ushbu maqolada so`g`d konfederatsiyasining ajralmas qismi bo`lmish Urgut va undagi xristianlik dini bilan bo`g`liq inshoatlarning topilishi tarixi haqida hikoya qilingan. So`g`d hududiga xristian nasroniylarining qanday kirib kelganligi to`g`rida tadqiqotlar aks ettirilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

Samarqand sshahridan 44 kilometr janubiy sharqda joylashgan Urgut tumani, Zarafshon tizma tog`lari etagida joylashgan va hali hanuz qadim tarixiy davrlardan so`zlovchi obidalari arxeologlar tomonidan mufassil o`rganilmagan. Urgut tumani hududidan bundan yuz ming yil ilgari yashagan odamlar qoldiqlari Omonqo`ton yodgorligidan topilishi, bu hudud juda qadimdan odamlar tomonidan o`zlashtirilganligini ko`rsatadi. Urgutda odamlar jez davrida ham ko`plab yashganliklarini tumandagi Mo`minobot va Soyig`us qishloqlaridan, bundan uch ming besh yuz yillar ilgari yashagan odamlarning qabrlari topilganligi ko`rsatib turibdi. Maymurg` hukmdorlari istiqomat qilib kelgan quldortepa yodgorligi bu hududda antic davrda ham muhim strategig ahamiyatga ega bo`lganligini ko`rsatadi. Ilk o`rta asrlarda aynan Maymurg` hukmdorlari sovg`a salomlar bilan diplomatik elchilarini Xitoy hududlariga yuborganlar.¹

Antik davr tarixchilarining ma'lumotlariga qaraganda, bunhududlarda ko`plab hayvonlarni saqlaydigan qoriqxona, ya`ni "Paradiz" mayjud bo`lgan. Hukmdorlar bunhududlarda yovvoyi hayvonlarni ov qilib dam olganlar. Hatto Aleksandr Makedonskiy ham bu hududda ov qilib hordiq chiqargani sir emas.

Arab tarixchilari Istaxriy va Ibn Xavkal Urgut tumanining janubiy tomonida Vazkard nomli qishloq mavjud bo`lganligini, bu hududda qadimdan xristian-nestorianlar ibodatxonasi faoliyat ko`rsatganligini yozib qoldirganlar. XVIII-XIX asrlarda ming urg`I vakillaridan biri bo`lgan Sanaqulbek ming urgut bekligi va Samarqand –urgut yo`lidagi darg`om kanalining o`ng tonidagi Jumabozor qishlog`I hududlarini boshqargan. An`anaga ko`ra beklik otadan bolaga meros bo`lib o`tgan.²

XIX asrning 20-yillarigacha bo`ysunishni istamagan urgut bekligi va Buxoro amirlari o`rtasida qonli to`qnashuvlar sodir bo`lib turgan. 1800-yilda urgut tumanida kuchli zilzila sodir bo`lib, aholi qattiq talofat ko`rganligidan foydalangan buxoro amiri katta qo`shin bilan kelib, qattiq zarba betadi va Urgutni kuch bilan bo`ysundiradi. Urgut bekligining tarkibiy qismi bo`lgan zarafshon daryodining o`rta oqimida

¹ АЗИМХЎЖА ОТАХЎЖАЕВ. ИЛК ЎРТА АСРЛАР МАРКАЗИЙ ОСИЁЦИВИЛИЗАЦИЯСИДА ТУРК-СУФД МУНОСАБАТЛАРИ.- "ART-FLEX" Тошкент – 2010 145-bet

² Temur Shirinov. Samarqand — dunyo gavhari

<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/temur-shirinov-samarqand-dunyo-gavhari>

joylashgan Mog`iyon qishlog`iga borib beklar join saqlashga majbur bo`ladilar. Beklarning mustaqillikga intilishlari to 1868-yilgacha, ya`ni 1868-yilning mart oyida polkovnik Abramov boshchiligidagi oq podsho lashkarlari kelib shaharni istilo qilgachgina yakun topadi. Urgut beklari keying faoliyatlarini Tojikiston Respublikasi hududida joylashgan o`z mulklari bo`lmish, Mog`iyon qishlog`ida davom ettirganlar.

Urgut beklari davrida bu hudud anchayin rivoj topadi, savdo-sotiq, me`morchilik ravnaq topadi. Beklar tomonidan savdo rastalari, maqbaralar barpo etiladi. Ta`limga ham e'tibor berilib, madrasa faoliyatimham yo`lga qo`yiladi.

Qadimgi so`g`d aholisi diniy jihatdan o`ta bag`rikeng bo`lganlar. Shuningdek, ular o`zlar ham o`z dinlarida sobitqadam bo`lganlar. Shu sababli boshqa dinlarning kirib kelishiga aslo mo`nelik qilmaganlar. Biz so`g`diyona hududida ko`plab buddaviylik ibodatxonalar bilan birgalikda xristian monastirlarini ham ko`plab uchratamiz. Qadimgi rim imperiyasida paydo bo`lgan xristianlik dini, milodiy V asrga kelganda turli oqim va firqalarga kelishmovchiliklar tufayli parchalana boshlaydi. Shunday oqimlardan biri V asrda Xalkedong soboridan keyin, konstantinopol cherkovidan ajralib chiqqan Nestorianlik oqimidir. Shuday vaziyatlarda, nestorinlik oqimi taqiibga uchrab, Parfiyaga qochadi. Lekin ularni parfiyada ham sig`dirishmagach, O`rta osiyo hududiga, vatanimiz So`g`diyonadan qo`nim topadilar. Oradan bir asr o`tib, So`g`d hududida ham xristian monastirlari paydo bo`la boshlaydi. Diniy erkinlik sabab ular o`z dinlarini yoya boshladilar. Hech qanday qarshiliksiz nestorianlik keng yoyila boshladi, ular vizantiyaliklar bilan savdoda yordam bera boshladilar. So`g`d hududidagi xristian monastralaridan ko`plab diniy buyumlar topilgani fikrimizning dalilidir. IX-XII asrlarda arablar xristianlikka to`sinqlik qilmasalarda, ular sharqiy turkiston va Mo`g`uliston tomonga qocha boshladilar. Mo`g`ullar davrida ko`plab hukmdorlar xristinlikni targ`ib qiladilar. Masalan, xristianlar tarbiyasini olgan Quyumxon(1246-1248), akademik V.V. Bartol'dning yozishicha, musulmonlarni ko`p marta ta`ziyy ostiga olgan. Xuddi shunday, arman podshosi Gugemuning ukase Simbat 1246-yilda Samarqandda bo`lib, u yerda xristinlar ibodatxonasida Iso tasvirini ko`rganini aytadi.³

Sharqshunos Jukovskiy Berka sultonning xristianlikdan Islom diniga o`tgan bir yigitni qatl qildirgan barcha xristianlarni qirib tashlashga buyruq bergani haqida yozib qoldirgan. Xristianlik dini O`rta osiyoda Toshkent vohasi va Sirdaryoning quyi oqimidagi Sig`noqda ham keng tarqalgan. Umuman bunday ibodatxonalar yurtimizda ko`plab topiladi. Moniylik, xristianlik, buddaviylik kabi dinlarning birgalikdagi yashashi ajodlarimoznind diniy qarashlarda bag`rikeng bo`lganliklarini ko`rsatadi.⁴

Yuqorida aytib o`tganimizdek, xristianlar nafaqat Samarqand shahri atroflarida balki, tarixiy manbalarda qayd etilganidek Urgut tumanida ham istiqomat qilib kelishgan. Urgutda yashab o`tgan nasroniylar xaqidagi malumotlarni dastlab arab tarixchisi Ibn Xavqalning asarlarida uchratamiz:" Assh shovdar –Samarqanddan janubda joylashgan tog`li rustoqdir. Samarqand atrofidagi havosining tozaligi, yerlarining unumdorligi va mevalarining shirinligi bo`yicha bu tog`li rustoqdan o` tadigani yo`q. Uning aholisi yaqin atrofdagi rustoqlar ichida jismoniy jihatdan eng sog`lom va rangi tozadir. Ash-sovdarda nasroniylarning ibodatxonalar mavjud bo`lib ular bu yerlarda to`planadilar. U yerda ularning hujralari, chiroyli va ozoda uy-joylari bor. Men Al-Iraq u yerda nasroniylaridan bir qanchasini uchratdim. Nasroniylar bu yerda qulay joylashganligim alohidaligi hamda sog`lom iqlimi tufayli tanilganlar. Ibodatxonaning vaqf yerlari bor va bir qancha insonlar butunlay shu ishlar bilan banddirlar. Bu yer as-So`g`dning bir qancha yerlaridan balandda joylashgan bo`lib, Vazkarda deb nomlanadi.⁵

O`tgan asrning boshlarida V.V. Bartol'd, V.L. Vyatkin. M.E. Masson singari bir qancha olimlar Ibn Xavqal tilga oolgan nestorianlik ibodatxonasining qoldiqlarini qidirganlarva u bilan bog`liq bir qancha

³ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения. Т. II. 4.1. М., 1963.

⁴ Бердимуродов А. Индиаминова Ш."Буюк ипак ўйли".-2017.105-107 бет

⁵ Ibn Xavkal. Kitob surat al ard fi-Movarounnahr. T-2011.60-63-bet

qiziqarli faktlarni ilgari surganlar. Ularning ko'pchiliklari ilgari surgan farazlarning bir xilligiga qaramasdan ularning bu boradagi ishlari yurishmaydi. Bu sohaga qiziqish bildirgan yana bir olimlardan biri GF. V. Parfyonov edi. Arxeolog bu borada o'quvchilardan yordam so`rab, o'quvchilar gazetasiga : "Qidirishga yordam bering"- deya maqola yozadi. Bu maqolani mutola qilgan o'quvchilar, allaqanday ilohiy bitiklar bitilagn devorlari mavjud bo`lgan g`orni Gulbog` darasidan topadilar. Qolaversa, o'quvchilar bir qancha arab tilida bitilgan kitonlar, qimmatbaho toshlar, inson suyaklarini ham topadilar. O'quvchilar o`z ustozlari yordamida g`ordagi devorlardan nusxa ko`chirishib, toshkentga , arxeolog olim Pafyonov oldiga yuboradilar. Arxeolog olim o`quvchilarga rahmat aytadi va javob maktubida ular topgan bitiklar bundan ancha yillar ilgari ushbu hududda yashagan nestorianlik bitiklari ekanligini yozadi. Sovet ittifoqida o`tganasnning 40-yillarida yuritilgan madaniy siyosat tufayli qolgan buyumlar g`orga yashirilgan bo`lishi, ular orasida arab tilidagi kitoblar ham uchrashi ehtimoldan holi emas. Bu haqda ma'lumotlarni olgan Perfyonov ma'lumotlarni Moskvaga , akademik Struvyega yuboradi. Shu tariqa bu haqdagi ishlar biroz susayadi. O'zbekiston arxeologiya limit tekshirish institutidan O'zbekiston –Fransiya qo'shma ekspeditsiyasi rahbari Frans Grene bu yerlarda saqlangan nestorianlar ibodatxonasi yoki nestorianlar bilan bog`liq bo`lgan yodgorliklarni topishda yordam so'raydi. Arxeologiya instituti xodimlariga urgutdagi nestorianlar ibodatxonasi xaqidagi bir qancha ma'lumotlar ma'lum edi. Lekin ular bu yodgorliklarning o`sha paytdagi holati qanday ekanligi haqida aniq ma'lumotlarga ega emasdilar.

Arxeologiya instituti xodimlari bu borada izlanishlar olib borib, Urgut tumaniga boradilar, suhbatlar, dala tadqiqotlarini o'tkazadilar. "Urgut sadosi" gazetasining bosh muharriri, yozuvchi va journalist Fayzi ak Xaydarov bilan bo`lgan suhbatda, ularga bu borada bir fidoyi inson, o`lkashunos-tarixchi o`qituvchi Najmiddin Kamolov yordam bera olishi haqida aytadi. Uzoq so`rab surishtiruvlardan so`ng Najmiddin domla Kamolovni topadilar. Ertasi kuni Najmiddin Kamolov ularni So`fiyon qishlog`ining tepe qismidagi tog` tomonga boshlab boradi. Bu yerda qo'tirbuloq degan buloq bore di. Olimlar qo'tirbuloqning tepe qismiga ko`tarilib egilib turgan chinor ostida uchta qoyaga ko`zları tushadilar. Qoyalarning tepe qismiga xoch tasviri tushirilgan bo`lib, ularning ostida son-sanoqsiz diniy yozuvlar mavjud edi. Institut xodimlari qoyalarni suratga olishib, ularni Fransiyaga yuboradilar. Tez orada Fransiyadan Mishel' Tardo ismli xristianshunos olim yetib keladi. Mishel' Tardo, Frans Grene kabi olimlar bilan yana urguttomonga yo`l olinadi. M. Tardoning fikriga ko`ra, bu yerdagi xoch tasvirlari ikki xil ko`rinishga ega va bu ikki guruhxristianlarga tegishli. Ular hech qachon birga yashamaganlar. Lekin bu yerdagi xoch tasvirlari yonma-yon tasvirlanganligi tahsinga sazovor. M. Tardoning fikriga ko`ra vatandan uzoqda bo`lish ularni yaqinlashtirgan bo`lishi mumkin. Yozivlarni o`rganish ishlaridan keyin, fransuz olimlari Parijda bu haqda bir qancha maqolalar chop etadilar. Shundan so`ng, bu sohaga qiziqish ancha ortadi. 1997-yilda Kiyevlik havaskor olim Aleksey Savchenko Samarqandga tashrif buyurib, xristianlar ibodatxonasi bilan bog`liq ilmiy ishni arxeologiya instituti xodimlari bilan birga qilishni taklif qiladilar. Institut xodimlari Maqsud Samiboyev boshliq komissiya tuzib, yana urgutga yuboradilar. Qo'tirbuloq teoasidagi qoyalarni yana o`rganilib, yana yangi yozuvlar topiladi. Ammo, monastir topilmaydi. Bir qancha insonlar bilan suhbatlar uyuşdırıldı, lekin foyda bo`lmaydi. Shundan so`ng, yon atrofdagi tepaliklar ko`zdan kechirila boshlanadi. Sufiyon qishlog`idagi F. G'affarov ismli kishining tomorqasi ko`zdan kechirilganda , g`arbiy tomondan bir qancha pishiq g`ishtlarga duch kelindi. Teparoqdagi M. Ibragimov tomorqasidan bu kabi g`ishtlasning bir qanchasi topiladi. M. Ibragimov bilan suhbsatda bu yerdagi g`ishlar bulldozer surganda paydo bo`lganligi, shuningdek bir qancha spool, shisha bo'laklari ham topilganligi qayd etadi. Shundan so`ng u kishining yerlariga shurf tashlanganligida, anchayin pishiq devor qoldiqlari topiladi. Komissiya ishi 1997-yilda tugaganligi tufayli, keyingi yilga ish qoldirilib, M.Ibrohimovdan bu yerga tegmaslik so`raladi. Ekspeditsiya 1998-yilda qazishmalarini davom ettirib, to`rtda mukammal terilgan, pisgiq g`ishtli xonalarni topadilar. Shuningdek bu yerlardan spool bo'laklari hamda shisha qoldiqlari topiladi. Pol ham hatto pishiq g`ishtdan terilgan edi. Komissiya topilmalarini maxsus lagerga to'playdi. Arxeologiya instituti xodimlari hali Xristianlar monastiri qoldiqlarini topganliklarini bilmas edilar. Qazishmalar davomida, X.

G'affarov tomonidan topilgan uch dona metal plastina sinkovlik bilan o'rganilganda, ular kumushdan yasalgan, 128,134,129 gramdan iborat 3dona kumush bilagizuk ekanligi aniqlanadi. Bilaguzuklar faqat chuqr zang bosganligi sababli o'rganish biroz qiyinchilik tug`diradi. Bilaguzuklar yupqa kumush simlardan tayyorlangan bo`lib, uchlari xuddi ilonning boshini yodga soladi.

Urgutdan topilgan ushbu bilaguzuklarga o`xshash bilaguzuklar Qozog`iston, Qirg`iziston shuningdek yurtimizning Toshkent vohasi singari hududlaridan ham topib o'rganilgan. Qirg`izistonning Shish-tebe yodgorligidan topilgan shu kabi bilaguzuklarni tadqiq qilgan arxeolog P. Kojemyaka bu kabi bilaguzuklar mikodiy X-XII asrlarga oid ekanligini yozgan . Shu kabi bilaguzuklar Toshkent vohasining chinoz hududidan ham topilgan bo`lib, ⁶D. Vorxodova ularni X-XI asrlarga oid ekanligini qayd etadi Sufiyon bilaguzuklariga o`xshash bilaguzuklar Toshkent viloyatining O'rtaovuz qishlog'idan ham topilgan bo`lib , ularni A. Terenojkin IX-X asrlarga oid ekanligini qayd etadi.

1964-yilda Toshkentning Bo'stonliq tumanidagi sijjak qishlog`idan ham kumush idishlar xazinasi topiladi. Xazina tarkibida sakkiz dona kumush bilakuzuk borligi aniqlanib, ularni arxeologlar milodiy XI-XII asrlarga oid ekanligini yozishgan.⁷

1965-Ushbu misollardan ko`ribadiki, kumush simlardan to`qilib tayyorlangan bilaguzuklar X-XII asrlarda ancha urg bo`lgan va ajdodlarimizning yuksak mahoratidan dalolat berib turibdi. Ushbunbilaguzuklar Yaponiyaning Nara shahrida Buyuk Ipak yo'li ko'rgazmasida namoyish etilib bir qancha etirofga sazovor bo`lgan. Hozirda ushbu bilaguzuklar O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlanmoqda.

1966-So`fiyondan topilgan monastir qoldiqlari vayron bo'limgan qismida qazish ishlari olib borilgan. Bu yerdagи dastlab qidiruvlar 1988-1989-yillarda olib borilgan edi. So`ngra bu yerdagи qazishma ishlari to`xtatilib, ochilgan qismlar ham qaytarib ko`mib yuborilgan.

1967-Shunday qilib Urgut tumani hududi so'g'd hukmdorlarining ajralmas bir qismi ekanligi va bu yerda nafaqat islom, balki xristian nestorianlari ham istiqomat qilib, nafaqat yurtimizda, balki butun o'rta osiyoda shuhrat qozonganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/temur-shirinov-samarqand-dunyo-gavhari>
2. Ibn Xavkal. Kitob Surat al ard fi-Movarounnahr. T-2011
3. Temur Shirinov. Samarqand — dunyo gavhari
4. Азимхўжа Отахўжаев. Илк Ўрта Асрлар Марказий Осиёвилизациясида Турк-Суғд Муносабатлари.- “Art-Flex”Тошкент – 2010
5. Ахрапов И. Тсмиргалиев Г.З. Клад серебряных украшений из Сиджака // СЭ. Вып. 3. М., 1966.
6. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения. Т. II. 4.1. М., 1963.
7. Бердимуродов А. Индиаминова Ш.” Буюк ипак йўли”:-2017.
8. Ворхотова Д.П. Два серебряных браслета X-XJ вв. из Чиназа // ИМКУ. Вып. 4. Ташкент, 1963.

⁶ Ворхотова Д.П. Два серебряных браслета X-XJ вв. из Чиназа // ИМКУ. Вып. 4. Ташкент, 1963. С-116-119

⁷ Ахрапов И., Тсмиргалиев Г.З. Клад серебряных украшений из Сиджака // СЭ. Вып. 3. М., 1966. С-119-121